

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

G'AYIMNAZAROV ISRAIL XOLIQOVICH

**KANALLARNING NOSTATSIONAR OQIM SHAROITLARIDA
OQIZIQLAR SARFINI HISOBLASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.07 - Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2022

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
and technical sciences**

G‘ayimnazarov Israil Xoliqovich

Kanallarning nostatsionar oqim sharoitlarida oqiziqalar sarfini hisoblash usullarini takomillashtirish..... 3

Гайимназаров Исраил Холикович

Усовершенствование методов расчета расхода наносов каналов в условиях нестационарности потока..... 22

G‘ayimnazarov Israil Xoliqovich

Improvement of methods for calculating sediment discharge of canals in conditions of nostationar flow. 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

G'AYIMNAZAROV ISRAIL XOLIQOVICH

**KANALLARNING NOSTATSIONAR OQIM SHAROITLARIDA
OQIZIQLAR SARFINI HISOBLASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.07 - Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2022

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/T120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshev Sobir Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bazarov Dilshod Rayimovich;
texnika fanlari doktori, professor

Baymatov Shaxriddin Xushvaqtovich;
Texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.t.111.04 raqamli ilmiy kengashning «___» _____ 2022 yil soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225-uy. Tel: (+99875)-221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225-uy. Tel: (+99875)-221-09-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2022 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

U.U.Jonqobilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash rais o‘rinbosari, t.f.d., professor

A.N.Xazratov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d.

R.T.Xo‘jaqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko'pgina daryo o'zanlarida gidrotexnik inshootlarni va katta yer o'zanli kanallarni loyihalash, qurish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan amaliy masalalarini yechimida o'zan tubi gryadlari o'lchamlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ularda oqiziqslarning tashilishi jarayoni gryadlar ko'rinishida ham sodir bo'ladi. Bu gryadlarning o'lchamlarini topish keyingi o'rinlarda o'zan tubi oqiziqslarining sarfini aniqlashning asosiy omillaridan biri bo'lib sanaladi. Yer o'zarlarda suv oqimining va gruntning o'zaro ta'siri natijasi to'lqinli ko'rinishdagi o'zan tubi gryadlarining sodir bo'lishiga olib keladi. Shu sababli gruntli kanallarda to'lqinlar (nostatsionar oqim) ta'siri ostida paydo bo'ladigan gryadlarning harakati bilan bog'liq bo'lgan oqiziqslarning tashilishini tadqiqotlash dolzarb muammolardan bo'lib sanaladi.

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida, jumladan AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda shamol to'lqinlari ta'sirida ishlaydigan katta yer o'zanli kanallarni loyihalashning samarali va ishonchli usullarini ishlab chiqishga katta e'tibor jalb qilinmoqda. Jahonda katta kanallarda sodir bo'ladigan deformatsiya jarayonlarini bashoratlash usullarini, ishonchiligi yuqori darajada bo'lgan samarali innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishga jalb etilgan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishiga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda yer o'zanli irrigatsiya kanallarini loyihalash, qurish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashdagi mukammal ilmiy ishlanmalariga ta'sir qiladigan omillarni o'rganish hamda ularni baholash va qo'llanish shartlarini aniqlash bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida irrigatsiya-melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hisobiga ekin maydonlarining suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash va suvni iqtisod qilish hamda 2022 yilda kanal, lotok, quvur va kollektor-drenaj tarmoqlari qurish va rekonstruksiya qilish vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, investitsiya loyihalari doirasida nasos stansiyalarini modernizatsiya, kanal va gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan suv resurslari taqchilligi davrida irrigatsiya tizimlaridagi yer o'zanli kanallarning gidrotexnika inshootlarini ishlashida ro'y beradigan shikastlanish, ishdan chiqish va avariylarni hisobga olish asosida loyihalash va foydalanishning samarali uslublarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"¹gi farmoni, 2017 yil 25-sentabrdagi PQ-3286-son "Suv ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019 yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-iyuldagi PF-6024-son «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zanlardagi oqiziqslarning gryadli va gryadsiz harakatidagi sarfini aniqlashga doir S.T.Altunin, V.S.Altunin, V.S.Borovkov K.V.Grishanin, V.K.Debolskiy, Y.A.Ibadzade, I.G.Kantardji, I.F.Karasev V.S.Knoroz, Z.D.Kopaliani, Y.M.Kuzminov, E.I.Mass, I.I.Levi, B.F.Snishenko E.K.Rabkova, N.S.Znamenskaya, P.Akkers, L.Van-Rayn, J.D.Jonson, J.Kennedi, X.Eynshteyn, R.Engelund, A.X.Abalyans, Q.SH.Latipov, X.A.Ismagilov, A.M.Muxamedov R.M.Karimov, M.R.Bakiyev, E.J.Maxmudov, A.M.Arifjanov, D.R.Bazarov, S.S.Eshev, T.Majidov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ko'pgina nazariy, laboratoriya va dala sharoitlarida tadqiqotlar olib borilgan.

Hozirgi kunda Hindiston, MDH va boshqa mamlakatlarda, shu jumladan respublikamizda yer o'zanli kanallar gidravlik hisobi asosan oqimni yuvmaslik tezliklari usuli bo'yicha olib borilib, ko'pgina g'arb mamlakatlarida qo'llaniladigan tangensial kuchlanishlar hisob usuli qo'llanilmaydi. Shuningdek, kanallarni loyihalashdagi gidravlik hisoblari suv oqimini faqat tekis harakati shartlarida olib borilib, tabiatda sodir bo'ladigan shamol to'lqinlarining o'zan oqimiga ta'sirining (nostatsionar oqim) doirasi hisobga olinmaydi. Vaholanki, yer o'zanli kanallarda sodir bo'ladigan gryadli ko'rinishdagi oqiziqslarning tashilish jarayonida o'zan gidravlikasida muhim ahamiyat kasb etadigan nostatsionar oqimlarning ta'siri sezilarli darajada bo'ladi. Shu sababli, yer o'zanli kanallar deformatsiyasining hisob usullarini nostatsionar oqim omillarini e'tiborga olgan holda takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ladi. Yuqorida e'tirof etilgan muammoning dolzarbligini irrigatsiya, melioratsiya, gidrotexnika va gidroenergetika amaliyoti masalalarida uchratish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi farmoni

5/2016 - “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalarining ilmiy-texnik masalalari yechimining samarasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Irrigatsiya va melioratsiya tizimidagi inshootlarni loyihalashda takomillashgan gidravlik usullarni qo‘llash” GTI/1-19 xo‘jalik shartnomasi mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kanallarda to‘lqin tarqalishi ta‘sirini inobatga olgan holda oqiziqqlar sarfini hisoblash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

yer o‘zanli kanallardagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida oqiziqqlar harakati boshlanishi, o‘zan tubi rel‘efining shakllanishi va oqiziqqlarning tashilishi bo‘yicha mavjud bo‘lgan gidravlik hisob usullarini tahlil qilish;

yer o‘zanli kanallarning statsionar va nostatsionar oqim sharoitlarida oqimning kinematik tuzilishi, o‘zan tubi gryadlarining shakllanishi va oqiziqqlarning tashilish jarayonlarini laboratoriya va dala sharoitlarida tadqiqot qilish;

nostatsionar oqim sharoitida ishlaydigan yer o‘zanli kanallardagi oqiziqqlar harakati boshlanishining gidravlik hisob usullarini takomillashtirish;

yer o‘zanli kanallardagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarini inobatga olgan holda sodir bo‘ladigan gryadlarning o‘lchamlarini hisoblash usullarini takomillashtirish;

yer o‘zanli kanallarning nostatsionar oqim holatini inobatga olgan holda oqiziqqlar sarfini hisoblash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida Mirishkor kanali qabul qilingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib, yer o‘zanli kanallardagi suv oqimining statsionar va nostatsionar sharoitlarida oqim kinematik strukturasi o‘zan tubi gryadlari shakllanishi va oqiziqqlar tashilishi jarayonlariga ta‘siri qonuniyatlarini o‘rnatish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tajriba tadqiqot natijalarini fizik qonuniyatlaridan, gidrodinamika tenglamalaridan, o‘zan gidravlikasi hisobi va matematik statistika usullaridan hamda modellashtirishning gidravlik, matematik va raqamli usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer o‘zanli trapetsiadal kanallardagi oqimning nostatsionar holatida oqiziqqlar o‘lchamini inobatga olgan holda, oqiziqqlar harakati boshlanishining kritik tezliklarini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

yer o‘zanli trapetsiadal kanallarda yon tomon qiyalik koeffitsiyentining o‘zgarishi inobatga olinib, gryadlar parametrlarini aniqlash bo‘yicha hisob usuli ishlab chiqilgan;

yer o‘zanli trapetsiadal kanallardagi oqimning nostatsionar holatida o‘zan tubi gryadlarining parametrlarini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

yer o‘zanli kanallardagi oqimning nostatsionar holatida gryadlar harakati inobatga olingan holda, oqiziqqlarning sarfini aniqlash usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

yer o‘zanli kanaldagi to‘lqin tarqalishi (nostatsionar harakati) ta’siri holatlari inobatga olingan holda oqiziqalar harakati boshlanishini aniqlashning takomillashtirilgan hisob usuli ishlab chiqilgan;

yer o‘zanli kanallardagi suv oqimining statsionar va nostatsionar holatlari inobatga olingan holda gryadlarning parametrlarini aniqlashning takomillashtirilgan gidravlik hisob usuli ishlab chiqilgan;

yer o‘zanli kanaldagi suv oqimining nostatsionar holati inobatga olingan holda gryadlar ko‘rinishda sodir bo‘ladigan oqiziqalarning tashilishini takomillashtirilgan hisob algoritmi va EHM uchun dasturlar ishlab chiqilgan;

yer o‘zanli kanallarlarda oqimning statsionar va nostatsionar holatlari inobatga olingan holda gryadlar harakati bilan sodir bo‘ladigan oqiziqalar sarflarini hisoblash bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan masalalarning aniqligi, gidrodinamika qonunlari va matematik usullarga asoslanganligi, sifatli gidravlik usullardan foydalanilganligi va hisobiy qiymatlarning tajribalarni olib borilishi jarayonida olingan ma’lumotlar bilan taqqoslanganligi hamda ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida matematik statistika uslublaridan foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yer o‘zanli kanaldagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida oqiziqalar harakatining boshlanishini, gryadlarning o‘lchamlarini va oqiziqalarning sarflarini aniqlashning gidravlik hisob usullarini takomillashtirilganligi va bularga asosan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yer o‘zanli kanallardagi suvning nostatsionar harakatini inobatga olgan holda uning gidravlik jihatdan samarador va ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlanishi, sodir bo‘ladigan deformatsiyalarning kamayishi va suv o‘tkazish qobiliyatining 8-10 % oshishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yer o‘zanli kanaldagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida o‘zan tubi oqiziqalari harakatining boshlanishi va o‘zan tubi gryadlarining shakllanishi hamda gryadlar harakati bilan kechadigan oqiziqalar tashilishini hisob usullarini takomillashtirish asosida olingan natijalar quyidagi kanallarda qo‘llanildi:

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining Mirishkor kanalida (2021 yildagi 27-oktyabdagi dalolatnoma), Qarshi magistral kanalida (2021 yil 03-noyabrdagi dalolatnoma) va “Oqsuv-Zarafshon irrigatsiya” MCHJlarda (2021 yil 18-iyundagi 14-sonli) qo‘llanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish haqida “Gidroproyekt” AJ (2021 yil 10-iyundagi 01-12/1005-sonli) va “UzGIP” AJlaridan (2021 yil 18-noyabrdagi 025-605-sonli) hamda “Nasaf maxsus suv qurilish ta’mirlash” MCHJ (2021 yil 06-iyun 17-son)dan ma’lumotlar olingan. Natijada kanalning suv o‘tkazish qobiliyatini bu

hisob usulining qo'llanishi (Suv xo'jaligi vazirligining 2022 yilning 8-apreldagi 03/27-779 – son ma'lumotnomasi) asosida 8-10 % ga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va institut miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shu jumladan 6 ta maqola Respublika va 3 ta maqola xorijiy jurnallarida nashr qilingan. Bulardan tashqari Skopus bazasidagi anjumanlarda 4 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, 2 ta EHM dasturlari uchun guvohnomalar olingan.

Tadqiqot hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqot ishining zarurligi va mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, ishonchligi asoslangan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yer o'zanli kanallardagi suvning nostatsionar harakatida mavjud deformatsiyalarning hisob usullarini tahlili”** birinchi bobida xorijiy va mamlakatimizdagi katta kanallarda shamol (nostatsionar oqim) to'lqinlarning jadallashishi va ularning o'lchamlarini aniqlash usullari qarab chiqilgan. Bunda to'lqinlarning o'zan tekis oqimiga ta'siri (nostatsionar oqim) natijasida sodir bo'ladigan deformatsiyalarning gidravlik hisob usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zandagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida oqiziqqlar harakatining boshlanishi, o'zan tubi to'lqinsimon rel'efining shakllanishi va oqiziqqlarning tashilishini hozirgi paytdagi mavjud gidravlik hisob usullari analitik tahlil qilinadi. Analitik tahlillarga asosan bu muammolarning mavjud yechimlarida shamol to'lqinlari bilan bog'liq bo'lgan nostatsionar oqimning ta'siri yetarli darajada o'rganilmaganligi va ularning ko'pgina hollarda faqat uzun to'lqinlarning yer o'zanli kanallarda sodir bo'ladigan deformatsion jarayonlarning tadqiqotlariga bag'ishlanganligi ko'rsatiladi. Hozirgi paytda, tadqiqotchilar tomonidan shamol to'lqinlari tarqalgan o'zan oqimining ta'sirida kanal

deformatsiyalarini tadqiqot qilishga unchalik e'tibor qaratilmagan. Shu sababli keyingi o'rinlarda qarab chiqiladigan o'zan tubi rel'efining gryadlar shakllanishi bilan sodir bo'ladigan deformatsiyalar hisobida oqimning nostatsionar harakatini inobatga olish kerak bo'ladi.

Ochiq o'zan gidravlikasining muhim masalalaridan bo'lib sanaladigan yer o'zanli kanaldagi oqiziqalar harakatining boshlanishini, o'zan tubi gryadlarining parametrlarini va oqiziqalarining sarflarini aniqlashning mavjud bo'lgan bog'lanishlarini suvning nostatsionar harakatini inobatga olgan holda modifikatsiyalash taklif etiladi. Bu masalalarning yechimini topishda tadqiqotchilar tomonidan juda kam sonli tadqiqotlar olib borilgan. Har bir tadqiqotchi o'tkazgan tadqiqot sharoiti chegarasida qaraladigan jarayon bo'yicha o'zlarining bog'lanishlarini taklif qilgani uchun, ularning natijalari bir-birlariga deyarli mos kelmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda yuqorida aytib o'tilgan muammolarga tegishli bo'lgan hamma omillarni o'z ichiga qamrab oladigan bog'lanishlar taklif qilinmagan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, yer o'zanli kanallardagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida oqiziqalar harakatining boshlanishi va o'zandagi o'zan tubi gryadlari harakati bilan sodir bo'ladigan oqiziqalarning tashilishini o'rganish uchun tadqiqotlar olib borish zaruriyati belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“Yer o'zanli kanallardagi deformatsiyalarni eksperimental tadqiqot qilish”** nomli ikkinchi bobida laboratoriya va dala sharoitida tadqiqotlarning o'tkazilishini uslubi va olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Suv harakatining statsionar va nostatsionar rejimlari Frud va Reynolds mezonlari bo'yicha modellashtirildi.

Statsionar tekis harakat rejimi uchun Reynolds soni:

$$Re = (\mathcal{G}_0 R) / \nu > Re_{kr} , \quad (1)$$

bu yerda \mathcal{G}_0 - oqimning o'rtacha tezligi; R - gidravlik radius; ν - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti.

Nostatsionar harakat rejimi uchun Reynolds soni:

$$Re = (\mathcal{G}_{\max} h_v) / \nu > Re_{kr} , \quad (2)$$


bu yerda \mathcal{G}_{\max} - to'lqinlarning maksimal orbital tezliklari; h_v - to'lqin balandligi.

Tajribalar Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Gidravlik jarayonlarni modellashtirish” laboratoriyasida bajarilgan. Metall lotok (11x2,50x0,40 m) ichida trapetsiya shaklidagi kanalning modeli qurildi (1-rasm). Kanal yon tomon qiyalik koeffitsiyentlari $m=2,0; 2,5; 3,0; 3,5$ qilib qurildi va tajribalarda diametri $d=0,50$ mm bo'lgan qum ishlatildi (2-rasm).

Kanal modelida suv oqimining nostatsionar holati lotok bosh qismida stvorning istalgan joyida o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan to'lqinlarni hosil qiluvchi moslama, ya'ni o'q atrofida aylanadigan tekis to'rtburchakli plastinka yordamida amalga oshirildi (3-rasm).

Rezervuarining bosh qismida Tomson suv o'lchagich vodoslivi o'rnatilgan. Bu vodoslivdan oqib o'tadigan sarf $Q=1,4H^{5/2}$ formula bilan aniqlandi. Kanalning

belgilangan stvorlaridagi suv oqimining chuqurliklari ignali shpitsenmasshtab va SW-G100A lazerli masofa o'lchagich yordamida o'lchandi.



1-rasm. Hidravlik lotokning umumiy ko‘rinishi

1-lotok; 2-lotokning bosh qismi; 3-nasoslar; 4-yuqori rezervuar; 5-suv olib keluvchi quvur; 6-naporli quvur; 7-suv tashlovchi quvurlar; 8-chambarak; 9-terilgan tosh; 10-oqiziqlar tushadigan joy; 11- metall relslar; 12-to‘lqin hosil qiluvchi moslama; 13-rels yo‘lagi; 14-zatvor; 15-gruntndan yasalgan trapetsiadal kanal modeli; 16- grunt namunasi tushadigan hovuz.

Kanal modelining har xil yon tomon qiyaliklari lotok devorlari bo‘yicha harakatlanadigan aravachaga tirkalgan metall planirovshik yordamida amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm. Bog‘lanmagan gruntli trapezsiya shaklidagi kanalning modeli.



3-rasm. Aylanuvchi plastinka turidagi to‘lqin hosil qiluvchi moslama

Laboratoriya tajribalarini o'tkazishdan maqsad qilib o'zan tubi gryadlari harakati bilan sodir bo'ladigan oqiziqlarning tashilishi jarayonlarini tadqiqotlash qo'yildi.

Laboratoriya tajribalari asosan ikki bosqichda o'tkazildi. Tajribalar birinchi bosqichida suvning statsionar va ikkinchi bosqichida nostatsionar harakatlari uchun olib borildi.

Laboratoriya tajribalari asosan kanal modelining o'zan tubi nishabligi $i=0,003$ holatda o'tkazildi. Bu nishablik uchun Frud va Reynolds sonlari o'zgarishining maksimal diapazoni shartlari o'rnatildi. Bunda Frud sonlari 0,00058 dan 0,0027 gacha, Reynolds sonlari esa 43007,2 dan 199117,5 gacha bo'lgan diapazonlarda o'zgardi.

Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatidagi Mirishkor kanalining PK 247...,252 va PK 1140+50...,1143+50 piketlari oralig'idagi uchastkalarida olib borildi.

1-jadval

Mirishkor kanalida SONTEC S5 akustik dopler apparati yordamida olingan dala tajriba ma'lumotlari


T/r	1	2	3	4	5	6
PK	PK 247	PK 248	PK 249	PK 250	PK 251	PK 252
$Q^{m^3/s}$	65,67	64,21	64,60	64,60	64,09	62,81
$g_{o,r}$	0,66	0,63	0,61	0,62	0,64	0,64
g_{max}	1,63	1,38	1,33	1,42	1,39	1,26
h_{max}	3,19	3,17	3,03	3,06	3,16	3,24
i	0.00016					
B	42,55	44,46	46,63	47,60	44,91	42,78

1a-jadval


Mirishkor kanalida SONTEC S5 akustik dopler apparati yordamida olingan dala tajriba ma'lumotlari

T/r	1	2	3	4	5	6	7
PK	PK 1140+50	PK 1141+00	PK 1141+50	PK 1142+00	PK 1142+50	PK 1143+00	PK 1143+50
$Q^{m^3/s}$	8.52	8.62	8.57	8.67	9.04	9.0	8.60
$g_{o,r}$	0.82	0.79	0.79	0.80	0.81	0.83	0.80
g_{max}	1.44	1.46	1.6	1.58	1.55	1.48	1.53
h_{max}	1.53	1.58	1.44	1.41	1.50	1.51	1.50
i	0.00016						
B	12.61	12.89	12.74	12.5	11.73	11.98	11.24

SONTEC S5 apparati yordamida PK 250 va PK 1140+50 larda olingan kanal gidravlik parametrlari 5-5a-raslarda ko‘rsatilgan.



5-rasm. Mirishkor magistral kanalining PK 250 dagi ko‘ndalang kesmi.



5a-rasm. Mirishkor magistral kanalining PK 1140+50 dagi ko‘ndalang kesmi.

Dissertatsiyaning “**Yer o‘zanli kanalda gryadlarning parametrlarini va oqizqlarning sarfini hisob usullarini takomillashtirish**” nomli uchinchi bobida kanal oqizqlari oqim va to‘lqinlarning birgalikdagi (nostatsionar) harakati natijasida tashiladi deb qaraladi. Bu qo‘yilgan masalani yechimi uchun quyidagi savollarni qarab chiqish belgilab olindi: o‘zan tubi oqizqlar harakatining boshlanishi; gryadlar o‘lchamlarini aniqlash; gryadlar bilan kechadigan oqizqlar sarfini hisoblash.

Bu ishda oqimning o‘zan tubi ostida yotgan oqizqlarni harakatga keltiruvchi tangensial kuchlanishlari yondashuvi asosida nostatsionar oqim holati uchun o‘zan tubi oqizqlari harakati boshlanishining hisob usulini takomillashtirish vazifasi qo‘yildi. Yuqorida qo‘yilgan masalaning yechimini aniqlashga doir Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining laboratoriyasida tajribalar o‘tkazildi.

Bu masalaning yechimi uchun asos sifatida Shields usulini qabul qilamiz. Shields tomonidan o‘lchamlar nazariyasiga asosan o‘zan tubi oqizqlari harakatining boshlanishini ifodalovchi quyidagi ikkita asosiy o‘lchamsiz parametrlar taklif qilingan:

$$\theta_{kp} = \frac{U_{*kp}^2}{(S-1)gd_{o'r}} ; \quad (3)$$

$$D_* = d_{o'r} \left[\frac{g(S-1)}{v^2} \right]^{\frac{1}{3}} , \quad (4)$$

bu yerda U_{*kp} - o‘zan tubi oqizqlari harakati boshlanishining kritik dinamik tezliklari; g – erkin tushish tezlanish; $d_{o'r}$ - oqizqlar o‘rtacha diametri; S – o‘zan tubi gruntning nisbiy zichligi; ν - molekulyar kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti.

Shilds o‘lchamsiz parametrlarining $\theta'_{kp} = f(D_*)$, ya'ni oqizqlar harakatining boshlanishini aniqlaydigan bog‘lanish grafigi qurilgan.

Biz nostatsionar oqim sharoiti uchun olib borilgan tadqiqot ma'lumotlariga asosan Shilds parametrlarini quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\theta'_{kp} = f(D_*), \quad (5)$$


bu yerda

$$\theta'_{kp} = \frac{u_{*m}^2}{gd_{o'r}(S-1)}. \quad (6)$$

Bunda u_{*m} - to‘lqinli oqimdagi maksimal dinamik tezlik bo‘lib, uni quyidagicha aniqlash mumkin:


$$U_{*m}^2 = gd_{o'r}(S-1)\theta'_{kp}. \quad (7)$$

6-rasmda o‘zan tubi oqizqlari harakatini boshlanishini aniqlaydigan $\theta'_{kp} = f(D_*)$ bog‘lanish grafigi keltirilgan.



6-rasm. $\theta'_{kp} = f(D_*)$ bog‘lanish egri chizig‘i

Olingan natija regression tahlil qilindi va tahlil natijalari qoniqarli darajadagi yaqinlikni ko‘rsatdi (7-rasm).



7-rasm. Laboratoriya tajriba ma'lumotlari va hisobiy qiymatlarning solishtirilishi

Turli yon tomon qiyalik koeffitsiyentlariga ega bo'lgan trapetsiya shaklidagi gruntli kanallarda gryadlarning balandligini aniqlashda quyidagi V.F.Pushkarev bog'lanishidan foydalanilgan:

$$h_g = 0,00445 \frac{g_0}{gd_0} h_0 + 0,049h_0, \quad (8)$$

bu yerda h_0 - oqim chuqurligi; g_0 - o'rtacha tezlik; d_0 - oqiziqslarning o'rtacha diametri.

V.F.Pushkarev tomonidan olib borilgan laboratoriya tajribalari keng o'zanli modelda o'tkazilgan. Endi bu (8) bog'lanishni turli yon tomon qiyalik koeffitsiyentlariga ega bo'lgan trapetsiya shaklidagi kanallar uchun modifikatsiyalashtiramiz. Buning uchun (8) bog'lanishni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$h_{gr} = \phi \left(0,00445 \frac{g_0^2}{gd_0} h_0 + 0,049h_0 \right), \quad (9)$$

bu yerda ϕ - kanal yon tomon qiyalik koeffitsiyentiga bog'liq bo'lgan parametr.

3 -jadval
 ϕ parametrning kanal yon tomoni qiyalik koeffitsiyentiga bog'liqligi

ϕ_0	ϕ			
$m=0$	$m=2$	$m=2,5$	$m=3,0$	$m=3,5$
1,08	0,72			
1,33		1,02		
1,32			1,05	
1,46				1,21


Bu parametrlar nisbati ϕ/ϕ_0 va gryad balandligining oqim chuqurligiga nisbati orasida $\phi/\phi_0 = f(h_{gr}/h)$ bog‘lanish mavjud deb qaraymiz (4-jadval).

4-jadval


$$\phi/\phi_0 = f(h_{gr}/h) \text{ bog‘lanishi}$$

ϕ/ϕ_0	0,67	0,77	0,80	0,83
h_{gr}/h	0,22	0,30	0,32	0,41

8-rasmda 4-jadvalga ko‘ra $\phi/\phi_0 = f(h_{gr}/h)$ bog‘lanish grafigi bo‘yicha qurilgan egri chiziq ko‘rsatilgan. Regression tahlil natijalari qoniqarli natijalarni ko‘rsatadi (9-rasm).



8-rasm. $\phi/\phi_0 = f(h_{gr}/h)$ bog‘lanish grafigi




9-rasm. Regression tahlil


Yuqorida keltirilgan 4-jadval va 8-rasmda ko‘rsatilgan $\phi/\phi_0 = f(h_{gr}/h)$ bog‘lanish grafigi yordamida kanal markazida va yon tomon qiyaliklarida paydo bo‘ladigan gryadlarning balandliklarini aniqlash mumkin.

10-rasmda gryadlarning laboratoriya tajriba ma‘lumotlari bilan ularning hisoblangan qiymatlarining taqqoslanishi aks ettirilgan. Bu taqqoslash ularning o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadi.

Keyingi o‘rinda kanal statsionar oqimidagi gryadlarning uzunligini aniqlash masalasi qarab chiqilgan. Ma‘lumki, gryadlarining uzunligini aniqlash bo‘yicha olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlarda ularning bu parametri o‘zgaruvchan bo‘lib, u statsionar holatda bo‘lmaydi degan xulosaga kelingan.



10-rasm. Tajriba gryadlarining balandligini (9) hisobiy gryadlar balandligi bilan taqqoslash



11-rasm. Tajriba gryadlarining uzunligini (11) hisobiy gryadlar uzunligi bilan taqqoslash

O'tkazilgan tajriba sharoitlaridagi gryadlarining uzunligini aniqlashda B.A.Shulyakning quyidagi formulasidan foydalanamiz:

$$\ell_{gr} = 5,55h_{gr}. \quad (10)$$

bu yerda h_{gr} - gryad balandligi.

Bu formula muallif tomonidan olib borilgan laboratoriya va dala sharoitlaridagi tadqiqot ma'lumotlariga asosan olingan bo'lib sifatli ko'rsatkichlarga ega, lekin kamchiliklardan ham holi emas. Bu formulada gryadlar sodir bo'lishi va harakati jarayonidagi vaqt hisobga olinmagan. (9) ni (10) ga qo'yib quyidagi gryalarning uzunligini aniqlash bog'lanishiga ega bo'lamiz:

$$\ell_{gr} = 5,55\phi \left(0,00445 \frac{g_0^2}{gd_0} h_0 + 0,049h_0 \right). \quad (11)$$

11-rasmda laboratoriya tajriba ma'lumotlari va (11) formula bo'yicha hisoblangan qiymatlarining solishtirilishi ko'rsatilgan. Bundan ularning o'zaro yaqinligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, regression tahlil natijalari ham qoniqarli natijalarni ko'rsatdi.

Bobning keyingi masalasi bo'lib, suvning nostatsionar harakatida kanal tubida sodir bo'ladigan gryadlarning o'lchamlarini aniqlash hisoblanadi.

Bu masalani o'rganish maqsadida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti laboratoriyasida tadqiqotlar olib borildi. Laboratoriya tajribalarini kanal modelining quyidagi yon tomon qiyaliklarini koeffitsiyentlarida o'tkazildi: $m=2,0;2,5;3,0;3,5$.

Olingan ma'lumotlarning tahlil natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, to'liq parametrlarining (h_v, λ_v) o'zgarishiga bog'liq holda gryadlarning ham parametrlari (h_{vgr}, ℓ_{vgr}) o'zgaradi. Bundan kanal oqimining statsionar holatidagi gryadlarga

nisbatan nostatsionar (to‘lqin+oqim) oqim holatidagi gryadlar kattaroq o‘lchamlarga ega bo‘ladi deb qarashimiz mumkin. Haqiqatan ham, to‘lqinlar ta’siri ostida o‘zan tubi tangensial kuchlanishlarining ortishi kuzatiladi va buning natijasida esa gryadlarning parametrlarini kattalashishiga olib keladi.

Yuqoridagi qarashlarimizga asosan statsionar harakatda hosil bo‘lgan gryadlarning to‘lqinlar ta’sirida o‘zgarishini hisobi uchun empirik bog‘lanishlarni olish mumkin.

Nostatsionar oqim ta’sirida sodir bo‘ladigan gryadlarning balandligi uchun

$$\frac{h_{vgr}}{h_{gr}} = 1 + 2,21 \frac{h_v}{h_0}, \quad (12)$$

uzunligi uchun esa

$$\frac{\ell_{vgr}}{\ell_{gr}} = 1 + 0,20 \frac{\lambda_v}{h_0} \quad (13)$$


bog‘lanishlarni yozamiz.

Bu empirik formulalarni mos ravishda quyidagi ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$h_{vgr} = h_{gr} \left(1 + 2,21 \frac{h_v}{h_0} \right); \quad (14)$$


$$\ell_{vgr} = \ell_{gr} \left(1 + 0,20 \frac{\lambda_v}{h_0} \right). \quad (15)$$

Bunda h_v, λ_v - mos ravishda to‘lqinlarning balandligi va uzunligi; h_{gr}, ℓ_{gr} kanallarda to‘lqinlar bo‘lmagan oqimda sodir bo‘ladigan gryadlarning mos ravishda balandligi va uzunligi bo‘lib, ular biz tomondan taklif qilingan (9) va (11) formulalardan aniqlanadi; h_{vgr}, ℓ_{vgr} - oqimga to‘lqinlar ta’sir qilganda sodir bo‘ladigan gryadlarning mos ravishda balandligi va uzunligi; h_0 - oqimning o‘rtacha balandligi.



12-rasm. Tajriba gryadlarning balandligini hisobiy gryadlarning qiymatlari bilan taqqoslash

12-rasmda suvning nostatsionar harakatidagi o‘zan tubi gryadlari balandligini laboratoriya ma’lumotlari va (14) formula bo‘yicha hisoblangan qiymatlarining solishtirilishi ko‘rsatilgan.



13-rasm. Tajriba gryadlarning uzunligini hisobiy gryadlarning qiymatlari bilan taqqoslash

Laboratoriya tajribalariga ko‘ra olingan gryadlarning uzunliklari bilan (15) hisobiy formulalar bo‘yicha topilgan qiymatlarining taqqoslanishi 13-rasmda ko‘rsatilgan.

So‘nggi masalada yer o‘zanli kanallardagi oqimning nostatsionar sharoitida oqizqlarning tashilishi qarab chiqilgan. Buning uchun o‘zandagi oqizqlar sarfini aniqlashning Akkers-Uayt usulidan foydalanilgan. Bu usul oqimning nostatsionar sharoitini hisobga olgan holda takomillashtirilgan. Bu usulning afzallik tomoni shundaki, u bilan bir vaqtning o‘zida o‘zan tubi va muallaq oqizqlarning umumiy sarfini aniqlash mumkin.

Hisoblarda oqizqlar o‘zan tubi va muallaq oqizqlarga ajratiladi.

Yirik oqizqlar $D_{gr} \geq 60$ shartga ko‘ra o‘zan tubida $\tau_{cg} = \rho (U^2 / C_{hcg}^2)$ siljituvchi kuchlar ta’sirida dumalab harakatlanadi. Bunda C_{hcg} - Shezi koeffitsiyenti bo‘lib, u $C_{hcg} = 5,75 \log 11h / D$ formula orqali aniqlanadi.

$D_{gr} \leq 1$ shartga ko‘ra mayda oqizqlar muallaq holatni egallab harakatlanadilar. Oqizqlarni muallaq holatga olib keluvchi turbulentlik o‘zan tubi to‘liq kuchlanishining funksiyasi bo‘lib, u $\tau_{cg} = \rho (U^2 / C_{hcg}^2)$ formuladan aniqlanadi. Bunda C_{hcg} - Shezi koeffitsiyenti bo‘lib, u gryadlarning balandligini inobatga oladigan $C_{hcg} = 5,75 \log 11h / h_{vgr}$ formula orqali aniqlanadi.

Nostatsionar oqimning oqizqlarni umumiy tashish quvvati quyidagicha bo‘ladi:

$$P_w = \rho \left[\frac{U^2}{C_h^2} U + c_g \frac{f_w}{4} (U_1^2 + U_2^2) \right], \quad (14)$$

bu yerda c_g - to‘lqinlarning guruhli tezligi; f_w - to‘lqinli ishqalanish koeffitsiyenti bo‘lib, muallaq va o‘zan tubi oqizqlari uchun alohida aniqlanadi.

Demak, Akkers-Uayt usulida formulalarning ikki bog‘lanishi mavjud bo‘lib, biri yirik hamda ikkinchisi mayda oqizqlarga tegishli.

Ushbu

$$1 < D_{gr} < 60 \quad (15)$$

ega bo‘lgan oraliq zona n daraja ko‘rsatkichni kiritilishi yordamida hisobga olinadi. Akkers-Uayt siljitish parametri quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$F_{gr} = \frac{U_*^n f_g U_*^{1-n}}{\sqrt{g D (S - 1)}}. \quad (16)$$

bu yerda U_* - siljituvchi kuch bo‘lib dinamik tezlik hisoblanadi.

Oqizqlar harakatining boshlanishi F_{grc} parametrni kritik qiymati bilan aniqlanadi, agar $F_{gr} < F_{grc}$ bo‘lsa, unda oqizqlarning harakati bo‘lmaydi. Nihoyat,

o‘zan oqimiga to‘lqinlar ta’siri bo‘lgandagi oqiziqslarning miqdori uchun quyidagi formula taklif qilindi:

$$X = C \left(\frac{F_{gr}}{F_{grc} - 1} \right)^m \frac{\rho_s}{\rho} \frac{D}{h} \left(\frac{\rho^{1/2} P_{fg}}{\tau_{fg}^{3/2}} \right)^n \left(\frac{P_{cg}}{\tau_{cg} U} \right)^{1-n}, \quad (17)$$

bu yerda ρ_s - oqiziqslar zichligi; h - oqim chuqurligi; C, m, n - koeffitsiyentlar; τ - oqim va to‘lqinlarning birgalikdagi ta’sirida paydo bo‘lgan o‘zan tubi effektiv tangensial kuchlanishi bo‘lib, u quyidagi bog‘lanishdan aniqlanadi:

$$\tau = \rho \left[\frac{U^2}{C_h^2} + 0,6 \frac{f_w}{4} (U_1^2 + U_2^2) \right]. \quad (18)$$

Bu usulda oqiziqslarning sarfi oqim sarfi hamda oqim va to‘lqinlarning birgalikdagi harakati natijasida tashiladigan oqiziqslarning og‘irliklari orqali aniqlanadi:

$$q_s = \frac{\rho}{\rho_s} q X. \quad (19)$$

Shunday qilib, nostatsionar oqimlar sharoiti uchun taklif etilgan takomillashgan usulning mohiyati shundan iboratki, bunda o‘lchamsiz oqiziqslar miqdori uchun olingan (17) ifodada siljitivchi kuchlanish va oqimning oqiziqslarni mahalliy tashish quvvatlarining yangi qiymatlarini bir yo‘nalishli va to‘lqinli oqimlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanilgan.

Dissertatsiyaning “**Yer o‘zanli kanallarning nostatsionar oqim holatida oqiziqslar sarfini hisoblash usuliga doir ilmiy tavsiyalar**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo‘yicha takomillashtirilgan gidravlik hisob usullari taklif qilinayotgan ilmiy tavsiyalarning asosini tashkil etadi.

Muallif tomonidan quyidagi hisob algoritmlari ishlab chiqilgan:

- yer o‘zanli kanallarda suvning nostatsionar harakatida oqiziqslar harakatining boshlanishini hisoblash algoritmi;

- yer o‘zanli kanallarning suvning statsionar va nostatsionar harakatlarida sodir bo‘ladigan gryadlarning o‘lchamlarini hisoblash algoritmi;

- yer o‘zanli kanallarida suvning nostatsionar harakatida oqiziqslarning umumiy sarfini hisoblash algoritmi.

Takomillashtirilgan gidravlik hisob usullariga ko‘ra quyidagi ilmiy tavsiyalar taklif etildi:

- «Рекомендации по гидравлическому расчёту наносов в каналах с зернистым грунтом» (протокол №01/67 от 25 ноября 2019 года технического совета Аму-Кашдарьинского БУИС и протокол №6 от 26 декабря 2019 года Каршинского инженерно-экономического института).

- «Рекомендации по гидравлическому расчету расхода наносов крупных земляных каналов в условиях ветро-волнового потока» (протокол №01-04/35 от 28 мая 2021 года технического совета Аму-Кашкадарьинского БУИС и протокол №5 от 27 мая 2021 года Каршинского инженерно-экономического института).

- “Shamol to‘lqinlari ta’sirida bo‘lgan kanal oqimining holatlarida o‘zanning dinamik mustahkam kesimini hisobiga doir tavsiyalar” (Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2021 yil 28-maydagi 01-04/35-son texnik Kengashida va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021 yil 27-maydagi 5-sonli Kengashida tasdiqlangan).

XULOSA

“Kanallarning nostatsionar oqim sharoitlarida oqiziqalar sarfini hisoblash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tadqiqotchi tomonidan oqimning nostatsionar harakati sharoitidagi oqiziqalarning harakatini boshlanishi va gryadlari harakati bilan kechadigan oqiziqalar tashilishi masalalariga kam e’tibor qaratilgan. Bu omillar yer o‘zanli kanal deformatsion jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Demak, nostatsionar harakatni inobatga olmaslik deformatsiya jarayonlarining gidravlik hisob usulini samarasini ancha pasaytiradi.

2. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan hosil qilingan yer o‘zanli kanaldagi suvning nostatsionar harakatida oqiziqalar harakatining boshlanishini ifodalovchi egri chiziqli bog‘lanish bir yo‘nalishli oqimga tegishli bo‘lgan Shilds bog‘lanishidan ancha pastda joylashadi. Bu nostatsionar harakatda oqiziqalar harakatining statsionar harakatga nisbatan ancha oldin boshlanishini ko‘rsatadi. Olingan bog‘lanish bilan boshqa tadqiqotchilarning bog‘lanishlarini taqqoslanishi ularning o‘zaro qoniqarli darajada ekanligini ko‘rsatdi.

3. Yer o‘zanli kanallardagi suvning statsionar harakatida gryadlari shakllanishining jarayonini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ularning balandliklari va uzunliklarini aniqlash bog‘lanishlari olindi. Shuningdek, oqim parametrlarining gryadlar parametrlariga bog‘liqligining qonuniyati o‘rganildi.

4. Yer o‘zanli kanallardagi suvning nostatsionar oqimida gryadlari shakllanish jarayonini o‘rganish olib borilgan tadqiqotlarda suvning kritik tezlikdan katta tezliklarida gryadlarining siljishi bilan oqiziqalarning tashilishi boshlandi. Shuningdek, kanaldagi suvning nostatsionar oqimida o‘zan tubidagi gryadlarining o‘lchamlari statsionar harakatdagiga nisbatan ancha kattaroq bo‘lishi kuzatildi. Kanal o‘zani oqimi va to‘lqinlarning birgalikdagi ta’siri natijasida o‘zan tubidagi gryadlarining parametrlari bilan tangensial kuchlanishlarning orasidagi bog‘liqlik

oʻrnatildi hamda yer oʻzanli kanallarda oqimning statsionar va nostatsionar holatlari inobatga olingan holda gryadlarining uzunligi va balandligini aniqlash usuli takomillashtirildi.

5. Ochiq oʻzanlardagi oqizqlarning gryadli koʻrinishdagi oqizqlar sarfini hisob usuli negizida kanaldagi nostatsionar oqim sharoiti inobatga olingan holda hisob usuli takomillashtirildi. Takomillashtirilgan hisob usuli oqizqlar tashilishiga toʻlqinlarning asosiy taʼsir xususiyatini, yaʼni toʻlqinli oqim sharoitida oqizqlar tashilishining koʻpayishini koʻrsatadi.

Bu takomillashtirilgan hisob usulining afzallik tomoni shundan iboratki, bu usulda oqizqlarni umumiy sarfini muallaq va oʻzan tubi oqizqlarga boʻlmasdan bir vaqtning oʻzida hisoblash imkoniyatini beradi.

6. Muallifning olib borgan tadqiqot natijalari asosida va boshqa mualliflarning tadqiqot maʼlumotlaridan foydalangan holda yer oʻzanli kanallarning statsionar va nostatsionar sharoitlari inobatga olinib, oqizqlar harakati boshlanishi, gryadlari parametrlarini aniqlash va gryadlari bilan kechadigan oqizqlarining tashilishi boʻyicha hisob usullari takomillashtirilgan hamda bular asosida ilmiy tavsiyalar va EHM uchun dasturlar ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.04/30.04.2021.Т.111.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ

ГАЙИМНАЗАРОВ ИСРАИЛ ХОЛИКОВИЧ

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАСЧЕТА РАСХОДА
НАНОСОВ КАНАЛОВ В УСЛОВИЯХ НЕСТАЦИОНАРНОСТИ
ПОТОКА**

05.09.07- Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2022

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2021.4. PhD/T120

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу (www.qmii.uz) и на информационном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:	Эшев Собир Саматович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Базаров Дилшод Райимович доктор технических наук, профессор Байматов Шахриддин Хушвактович; доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент.
Ведущая организация:	Научно-исследовательский институт иригации и мелиорации.

Защита диссертации состоится «___» _____ 2022 года в ___ часов на заседании научного совета PhD.04/30.04.2021.T.111.04 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г.Карши, пр. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875)-221-09-23; e-mail: qmii@qmii.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № ____). (адрес: 180100, Карши, пр. Мустакиллик, 225. тел (+99875) 221-09-23).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2022 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от «___» _____ 2022 года).

У.У.Жонқобилов
Зам Председателя научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

А.Н.Хазратов
Учёный секретар научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по техническим наукам

Р.Т.Хужакулов
Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире при решении практических задач, связанных с проектированием, строительством и эксплуатацией многих гидротехнических сооружений в речных руслах и больших земляных каналах вопрос определения размеров донных гряд имеет особое значение. Известно, что процесс транспорта наносов в них также происходит в виде гряд. Определение размеров этих гряд считается одним из основных факторов для определения расхода донных наносов. Взаимодействие водного потока и грунта в земляных руслах приводит к образованию волнистых донных гряд. Поэтому исследования транспорта наносов, сопровождающихся с движением донных гряд при воздействии волнового потока в грунтовых каналах, является актуальной проблемой.

В мире, особенно во многих развитых странах, таких как США, Россия, Германия, Франция, Япония, Китай, Нидерланды и других, большое внимание уделяется разработке эффективных и надежных методов проектирования крупных земляных каналов, работающих под воздействием ветровых волн. Большое внимание уделяется выполнению целенаправленных научно-исследовательских работ, связанных с разработкой методов прогнозирования деформационных процессов, происходящих в крупных каналах по всему миру, эффективных инновационных технологий с высокой степенью надежности.

В настоящее время в нашей республике проводятся многочисленные исследования по исследованию факторов, влияющих на усовершенствование научных работ по проектированию, строительству и эффективному использованию земляных ирригационных каналов, а также по определению их оценки и условий применения. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2022-2026 годы указаны задачи “за счёт строительства и реконструкции ирригационно-мелиоративных сооружений поставлен вопрос по улучшению водоснабжения и мелиоративного состояния посевных площадей и экономии воды, а также строительства и реконструкции каналов, лотков, труб и коллекторно-дренажных сетей в 2022 году”. Также в рамках инвестиционных проектов определены задачи модернизации насосных станций, реконструкции русловых и гидротехнических сооружений. Реализация этих задач, в том числе разработка эффективных методов проектирования и использования ирригационных систем в период дефицита водных ресурсов на основе учета повреждений и аварий, возникающих при эксплуатации гидротехнических сооружений земляных каналов, считается одной из важных задач сегодняшнего дня.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит решению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП 60 «О стратегии развития нового Узбекистана на

2022-2026 годы»², от 17 июня 2019 года №УП-5742 «О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве» и от 10 июля 2020 года №УП-6024 «Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», в Постановлении от 25 сентября 2017 года №ПП-3286 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов» и в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

